

**BOSHLANG‘ICH TALIM JARAYONIDA FONETIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI****Kenjayeva Zilola Saminjon qizi,***O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik zarurati, metodik asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishda tizimlilik, bosqichlilik, integratsiya va individual yondashuv kabi muhim tamoyillar ishlab chiqilgan. Maqolada fonetik mashqlarni nafaqat ona tili darslarida, balki matematika, tabiatshunoslik va musiqa kabi boshqa fanlar bilan integratsiyalash metodikasi hamda uning nutq ravonligi, intonatsiya va fonemik idrokni oshirishdagi samaradorligi statistik kuzatuvlar va natijalar asosida yoritilgan. Taklif etilgan metodika o‘quvchini jarayonning faol subyektiga aylantirish va o‘qituvchining fasilitatorlik rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** fonetik kompetensiya, boshlang‘ich ta‘lim, fonemik idrok, integrativ yondashuv, nutq ravonligi, intonatsiya, metodik model, zamonaviy texnologiyalar, individual yondashuv.

**Аннотация.** Аннотация В данной статье анализируются педагогическая необходимость, методические основы и практическая значимость развития фонетических компетенций у учащихся начальных классов. В исследовании разработаны такие важные принципы формирования фонетических навыков, как системность, поэтапность, интеграция и индивидуальный подход. В статье освещается методика интеграции фонетических упражнений не только в уроки родного языка, но и в другие предметы, такие как математика, естествознание и музыка, а также её эффективность в повышении беглости речи, интонации и фонематического восприятия на основе статистических данных и результатов. Предложенная методика способствует превращению учащегося в активного субъекта процесса и усилению роли учителя как фасилитатора.

**Ключевые слова:** фонетическая компетенция, начальное образование, фонематическое восприятие, интегративный подход, беглость речи, интонация, методическая модель, современные технологии, индивидуальный подход.

**Abstract.** Abstract This article analyzes the pedagogical necessity, methodological foundations, and practical significance of developing phonetic competencies in primary school students. The research develops key principles for forming phonetic skills, such as consistency, gradualness, integration, and an individual approach. The article highlights the methodology of integrating phonetic exercises not only into native language lessons but also into other subjects like mathematics, natural sciences, and music, as well as its effectiveness in improving speech fluency, intonation, and phonemic perception based on statistical observations and results. The proposed methodology serves to transform the student into an active subject of the process and enhance the teacher's role as a facilitator.

**Key words:** phonetic competence, primary education, phonemic perception, integrative approach, speech fluency, intonation, methodical model, modern technologies, individual approach.

**Kirish.** Respublikamizda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va pedagogik metodikani takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231 sonli qarori hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan milliy dasturlar (PF-134, PF-152) o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, darslik va metodik qo‘llanmalarni zamonaviylashtirish vazifasini belgilab bergan. "Ta‘lim to‘g‘risida"gi Qonun va Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ona tilini chuqur o‘qitish hamda o‘quvchilar

nutq madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda ta'lim sifati va mazmunini tubdan yangilashga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", shuningdek, so'nggi yillarda qabul qilingan Prezident qaror va farmonlarida ona tilini chuqur o'qitish, o'quvchilar nutq madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu hujjatlar ta'lim jarayonida metodik yondashuvlarni yangilash va o'qituvchining kasbiy salohiyatini yuksaltirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, fonetik kompetensiyani rivojlantirish masalasi boshlang'ich ta'lim metodikasini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Quyida boshlang'ich ta'lim ona tili darslarining rejalarida fonetika oid "Tovush nima?", "Tovush va harf", "Unli tovush va harflar", "Jarangli va jarangsiz undoshlar" kabi mavzular berilgan. Ularni o'rganish uchun 1-sinfda 24 soat, 2-sinfda 36 soat, 3-sinfda 17 soat, 4-sinfda 10 soat ajratilgan.

Avvalgi boblarda fonetik kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va pedagogik zarurati yoritildi. Jumladan, 1-bobda fonetik kompetensiyaning ta'rif, uni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiyalash zarurati va didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi. 2.1 va 2.2-paragraflarda esa fonetik kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari hamda modelining mazmuni ishlab chiqildi. Ushbu ilmiy-nazariy asoslar 2.3-paragrafda metodik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shunday qilib, mazkur bo'lim oldingi boblarda shakllangan konseptual va model asoslarini bevosita ta'lim jarayoniga tatbiq etishga qaratiladi.

Ushbu huquqiy asoslar ta'lim jarayonida metodik yondashuvlarni yangilashni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, fonetik kompetensiyani rivojlantirish boshlang'ich ta'lim metodikasini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida fonetikaga oid mavzular (tovush, harf, unli va undoshlar) uchun 1-sinfda 24 soatdan 4-sinfgacha jami salmoqli vaqt ajratilgan bo'lsa-da, ularni o'zlashtirishning samarali metodikasini ishlab chiqish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

**Metodlar.** Metodika ishlab chiqishda bir nechta asosiy tamoyillarga tayanish muhimdir. Birinchi navbatda, tizimlilik tamoyili e'tiborga olinadi. Fonetik mashqlar alohida va fragmentar shaklda emas, balki muntazam va izchil tarzda amalga oshirilishi zarur. Masalan, bir darsda tovushlarni talaffuz qilish mashqlari, boshqa darsda esa intonatsiyani o'rganish emas, balki har bir darsda fonetik mashqlar tizimli ravishda kiritilishi kerak. Bu yondashuv o'quvchilarda fonetik ko'nikmalarni izchil shakllantiradi va ularni uzoq muddatli xotirada mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, bosqichlilik tamoyili muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda fonetik kompetensiya asta-sekinlik bilan shakllanadi: dastlab tovushlarni eshitib farqlash va talaffuz qilish, keyinchalik bo'g'in va so'zlarni to'g'ri aytish, so'ng gap darajasida

intonatsiya va urgʻudan foydalanish, yakunda esa fonetik kompetensiyani nutqiy muloqotda erkin qoʻllash. Bu bosqichlar oʻquvchilarning rivojlanish xususiyatlariga mos keladi va fonetik kompetensiyaning barqaror shakllanishini taʼminlaydi.

Uchinchidan, integratsiya tamoyili metodikaning samaradorligini oshiradi. Fonetik mashqlar faqat ona tili darslarida emas, balki boshqa fanlarda ham qoʻllanilishi zarur. Masalan, oʻqish darslarida ravon oʻqish va intonatsiya mashqlari bajarilishi, musiqa darsida qoʻshiq orqali talaffuz va intonatsiya mustahkamlanishi, teatr darslarida esa dialog va monologlarni ifodali aytish mashq qilinishi mumkin. Shu orqali fonetik kompetensiya keng qamrovli tarzda rivojlanadi va hayotiy muloqotga yaqinlashadi.

Toʻrtinchidan, individual yondashuv tamoyili oʻquvchilarni jarayonga toʻliq qamrab olish imkonini beradi. Chunki har bir bolaning fonetik rivojlanish darajasi bir xil emas: kimdir tez oʻzlashtiradi, kimdir esa qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli metodikada differensial mashqlar tizimi ishlab chiqilishi kerak: zaifroq oʻquvchilar uchun soddalashtirilgan topshiriqlar, kuchliroq oʻquvchilar uchun esa murakkabroq mashqlar taklif etilishi zarur. Bu yondashuv barcha oʻquvchilarni jarayonga faol jalb qiladi va ularning individual rivojlanishini taʼminlaydi.

Metodika ishlab chiqish zaruratini yana bir jihatdan oʻqituvchining roli bilan ham izohlash mumkin. Anʼanaviy yondashuvlarda oʻqituvchi koʻproq nazorat qiluvchi va koʻrsatma beruvchi rolni bajaradi. Zamonaviy metodikada esa oʻqituvchi boshqaruvchi emas, balki yoʻnaltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. U mashqlarni tashkil qiladi, namunalarni koʻrsatadi, ammo oʻquvchilarga mustaqil mashq qilish, izlanish va ijod qilish imkonini beradi. Bu esa oʻquvchilarning faoliyatini markazga qoʻyadi va ularni bilim jarayonining passiv emas, balki faol subʼyektiga aylantiradi.

Ushbu metodikada oʻqituvchining roli anʼanaviy nazorat qiluvchidan yoʻnaltiruvchi (fasilitator) darajasiga oʻzgaradi. Oʻquvchi jarayonning passiv obʼekti emas, balki mustaqil izlanuvchi faol subʼyektiga aylanadi.

**Natijalar.** Fonetik kompetensiyani rivojlantirish faqat til va sanʼat fanlariga bogʻliq emas. Matematikada, tabiatshunoslikda, hatto jismoniy tarbiya darslarida ham fonetik mashqlarni integratsiyalash mumkin. Matematika darsida – son va misollarni ifodali talaffuz qilish, masalalarni ovoz chiqarib oʻqish. Tabiatshunoslik darsida – atamalarni aniq talaffuz qilish, kuzatuv natijalarini ogʻzaki bayon qilish. Jismoniy tarbiya darsida – buyruq va jamoaviy shiorlarni ravon aytish orqali talaffuzni mashq qilish. Shu tarzda fonetik mashqlar turli fanlar mazmuniga singdirilib, oʻquvchilarda nutqiy kompetensiya keng koʻlamda shakllanadi.

Har bir fan orqali fonetik kompetensiyani qoʻllab-quvvatlash umuman olganda, fonetik mashqlarni turli fanlarga integratsiyalash quyidagi natijalarni beradi. Oʻquvchilar fonetik mashqlarni turli vaziyatlarda qoʻllashni oʻrganadilar. Fonetik kompetensiya faqat ona tili bilan cheklanib qolmaydi, balki hayotiy nutqiy vaziyatlarga ham moslashadi. Oʻquvchilarda talaffuz, ravonlik va intonatsiya koʻnikmalari muntazam mustahkamlanadi.

Har bir fan o'z mazmuni orqali fonetik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida fonetik mashqlarni qo'llash metodikasi o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Ona tili darslarida tovush-harf bog'lanishi mustahkamlanadi, o'qish darslarida ravonlik va ifodali talaffuz rivojlanadi, musiqa darslarida intonatsiya mashq qilinadi, boshqa fanlarda esa fonetik mashqlar hayotiy vaziyatlarga moslashadi. Shu tariqa fonetik kompetensiya barcha fanlar orqali izchil va tizimli rivojlanadi.

Ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarni dars jarayoniga tatbiq etish quyidagi ijobiy natijalarni ko'rsatdi:

1. Fonemik idrokning o'sishi: O'quvchilar tovushlarni (masalan, s va sh, o va u) aniq farqlashni va to'g'ri talaffuz qilishni o'rgandilar, bu esa yozuvdagi xatolarning kamayishiga olib keldi.

2. Nutq ravonligi va intonatsiya: Artikulyatsion mashqlar va tez aytishlar orqali talaffuz aniqligi oshdi. O'quvchilar gap turlariga qarab urg'u va ohangni to'g'ri qo'llash malakasini egalladilar.

3. Faollik va ijodkorlik: "So'zdan so'z yasash" yoki "Tovushni top" kabi o'yinlar, she'r va qo'shiqlar orqali o'quvchilarning nutqiy faolligi va ijodiy salohiyati kuchaydi.

4. Keng qamrovli qamrov: Individual yondashuv natijasida o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar ham jarayonga to'liq jalb qilindi, bu esa ta'limning inklyuzivligini ta'minladi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fonetik kompetensiya faqat ona tili fanining mahsuli emas, balki barcha fanlar integratsiyasida shakllanadigan murakkab jarayondir. Matematika darslarida sonlarni ifodali aytish, tabiatshunoslikda atamalarni aniq talaffuz qilish fonetik ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarga moslashtiradi. Bu esa o'quvchilarda o'z ustida ishlashga rag'bat uyg'otadi va metodikaning amaliy natijadorligini tasdiqlaydi. Talaffuz aniqligi va nutq ravonligi rivojlanadi. Metodik yondashuv natijasida o'quvchilar tovushlarni to'g'ri hosil qilish, artikulyatsiya organlarining harakatini nazorat qilishni o'rganadilar. Artikulyatsion mashqlar, tez aytishlar, ifodali o'qish mashqlari orqali ular talaffuzni aniq va ravon qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Nutq ravonligi o'quvchilarning og'zaki muloqotdagi ishonchliligini oshiradi. Ravon talaffuz nafaqat dars jarayonida, balki kundalik hayotda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu o'quvchining o'z fikrini erkin, tushunarli va mantiqan izchil bayon etishini ta'minlaydi.

Intonatsiya va urg'uni to'g'ri qo'llash ko'nikmasi shakllanadi. Fonetik mashqlarning yana bir samarasi — intonatsiya va urg'uni to'g'ri qo'llashdir. O'quvchilar gapdagi so'zlarning ma'nosini urg'u bilan ajratishni, savol, hayrat, buyruq gaplarda mos intonatsiyani qo'llashni o'rganadilar. Masalan, "Sen maktabgami ketayapsan?" va "Sen maktabga ketayapsan." jumlaridagi ohang farqi o'quvchilarga intonatsiyaning muloqotdagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Bu ko'nikma keyinchalik o'quvchilarning ifodali o'qish, sahna nutqi, jamoa oldida chiqishlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlariga xizmat qiladi. Intonatsiyani to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarda nutq madaniyati shakllanadi.

O'quvchilarning nutqiy faolligi va ijodkorligi kuchayadi. Fonetik mashqlar tizimi o'quvchilarning faolligini oshiradi, chunki ular o'yinlar, ijodiy topshiriqlar, teatrlashtirilgan mashqlarda faol ishtirok etadilar. Masalan, "So'zdan so'z yasash" yoki "Tovushni top" o'yinlari o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi. She'r yodlash, qo'shiq kuylash, sahna ko'rinishlarini ijro etish orqali o'quvchilar o'zlarining ijodiy salohiyatini namoyon etadilar. Bu esa ularning nutqiy faolligini yanada kuchaytiradi va ularda ijodkor shaxs sifatida shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Har bir o'quvchi jarayonga qamrab olinadi. Metodikaning eng muhim jihatlaridan biri — har bir o'quvchini jarayonga jalb qilishidir. Individual yondashuv tamoyili asosida o'quvchilar qobiliyati va imkoniyatiga qarab mashqlar tanlanadi. Zaifroq o'quvchilar uchun soddalashtirilgan topshiriqlar, kuchliroq o'quvchilar uchun murakkab topshiriqlar beriladi. Shu tariqa, hech bir o'quvchi chetda qolmaydi. Har bir bola fonetik mashqlarda o'z darajasiga mos faoliyatni bajaradi va asta-sekin rivojlanadi. Bu yondashuv ta'limning inklyuzivligini ta'minlaydi, barcha o'quvchilarni teng sharoitda rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada fonetik kompetensiya faqat ayrimlarda emas, balki butun sinfda shakllanadi.

Fonetik kompetensiyani rivojlantirish metodikasining samaradorligi quyidagi asosiy natijalarda namoyon bo'ladi. O'quvchilar tovushlarni aniq farqlashni o'rganadilar. Talaffuz aniqligi va nutq ravonligi rivojlanadi. Intonatsiya va urg'uni to'g'ri qo'llash ko'nikmasi shakllanadi. O'quvchilarning nutqiy faolligi va ijodkorligi kuchayadi. Har bir o'quvchi jarayonga qamrab olinadi. Tadqiqotimizda ishlab chiqilgan metodika fonetik kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. U o'quvchilarni nafaqat nazariy bilim, balki amaliy nutqiy faoliyatga tayyorlaydi, ular uchun mustahkam kommunikativ poydevor yaratadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida fonetik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni o'quvchilarning talaffuz, intonatsiya, fonemik eshituv, nutq ravonligi kabi komponentlarini tizimli ravishda shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun, ishlab chiqilgan metodika samaradorligini aniqlashda baholash tizimi muhim nazorat vositasi sifatida xizmat qiladi. Mazkur baholash tartibi "Fonetik kompetensiyani rivojlantirish" modulining nazorat-baholash komponenti asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quvchilar fonetik malakalarini bosqichma-bosqich o'sishini aniqlash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va metodikaning amaliy samaradorligini tekshirishga qaratilgan.

**Xulosa qilib aytganda**, taklif etilgan metodika boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mustahkam kommunikativ poydevor yaratadi va ularni nutqiy faoliyatga har tomonlama tayyorlaydi. Metodikaning samaradorligini nazorat qilish uchun maxsus baholash tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim ob'ektivlik, tizimlilik, motivatsionlik va integrativlik

tamoyillariga asoslanadi. Baholash jarayoni o'quvchining nafaqat nazariy bilimini, balki musiqa, teatr va ona tili darslaridagi fonetik faoliyatini ham qamrab oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 11-may, PF-134-son
2. Xakimova, Z. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish: pedagogik muammo sifatida. – Interscience Journal, 2023, №12, – B. 242–248.
3. Jaxongirova, M. N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish. – CyberLeninka elektron ilmiy platformasi, 2025.
4. Mamasidikova, N. T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fonetik kompetensiyasini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish. – Universal jurnal, 2024, T. 4, – B. 45–50.
5. Jalilova, Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. – CyberLeninka elektron ilmiy bazasi, 2023.
6. Turganbekova, G. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari. – CyberLeninka elektron ilmiy platformasi, 2025.
7. Muhammadiyeva, X. K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. – CyberLeninka elektron ilmiy platformasi, 2021.

